

INGLIZ TILINING XALQARO TILGA AYLANISH SABABLARI

REASONS FOR ENGLISH BECOMING AN INTERNATIONAL LANGUAGE

*Arslonova Mushtariybegim Abdullajon Qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

Tel: +99891 317 44 84

Annotatsiya: Hozirgi kunda „Xalqaro ingliz tili“ nomi bilan mashhur bo’lgan bu til globallashuv jarayonida ko’plab sohalarni qamrab olmoqda. Jumladan, muloqot, biznes, tibbiyat, transport, texnologiya, savdo yoki marketing kabilardagi o’rni beqiyosdir. Global miqyosda ingliz tilini birinchi yoki ikkinchi til sifatida gaplashadigan so’zlashuvchilar ko’p. Shubhasiz, dunyodagi boshqa hech bir til o’zining ulkan mashhurligi jihatidan ingliz tiliga tenglasha olmaydi.

Abstract: Today, this language, which is known as “international English”, covers many areas in the process of globalization. In particular, its role in communication, business, medicine, transportation, technology, trade or marketing is incomparable. Globally, there are many speakers who speak English as a first or second language. Undoubtedly, no other language in the world can match English in terms of its immense popularity.

Kalit so’zlar: globallashuv tilga aylanish sabablari va istiqbollari; ommalashuvi; afzalliklar va kamchiliklar; yozma ravishda o’rganishi.

Key words: reasons and perspectives of globalization becoming a language, popularization, advantages and disadvantages, written study.

Hozirgi kunda ingliz tilini o’rganish globallashuv bormoqda va odamlar uchun umumiyligini bo’lgan aloqa turi hisoblanadi. Ingliz tili jahon hamjamiyatining global tili sifatida butun dunyoga mashhur. Global til- bu dunyo bo’ylab ikkinchi til sifatida ko’p odamlar o’rganadigan barcha mintaqalar aholisining aksariyati gaplasha oladigan va tushuna oladigan tildir. Qolaversa, bugungi kunda ingliz tili o’ziga xos mavqega ega va bu butun insoniyatga millatlararo muloqot tiliga aylanmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko’ra , 430 million kishi ingliz tilida muloqot qiladi, negaki aksariyat mamlakatlarda bu rasmiy til hisoblanadi. Mamlakatimizdagi har beshinchi shaxs ingliz tilida eng kam darajasiga ega chunki u xalqaro miqyosda tan olingan tildir. Bu til BMT, YUNESKO, SAARC hamdo’stlik va boshqa ko’plab xalqaro tashkilotlarda ham qo’llaniladi.

Ingliz tilini kengayish doirasi O’zbekistonda mustaqillik erishgandan keyin boshlanishiga qaramasdan, yaqin davrgacha jadayam sust holda, an’anaviy o’qitish uslubi (traditional way) bilan kechgan. Hozirda esa interaktiv darslar ko’proq kommunikativ uslubga tayangan holda, qiziqarli tarzda iduktiv(inductive way) va

deduktiv (deductive) yo'l bilan til o'rganuvchilarni samarali o'qitilishiga bosqichma-bosqich erishilmoxda. Lekin shunga qaramay, ingliz tilini so'zlashish indeksi (EF ENGLISH PROFIENCY INDEX) tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekiston 112 ta davlat orasida 88 o'rinda turmoqda. REyting bo'yicha O'zbekiston Albaniya hamda Suriya o'rtasida joylashgan bo'lib, ingliz tilini bilish darajasi juda past deb baholangan davlatlar guruhiga kiritilgan.

Umuman olganda, chet tillarini o'qitish mustaqillik yillaridan oldin ham olib borilgan. Lekin ta'kidlaginimizdek, odatiy o'qitish tamoyillar bo'yicha (with Grammar-translation method) faqatgina Grammatik qoidalar orqali ona tiliga to'liq tayangan tarzda, yodlash usuli bilan o'qitilgan bo'lib, buning natijasida o'rganuvchilar muloqot qilishda oqsaydigan bo'lib qolishgan.

Ushbu davrlar mobaynida xorijiy tillar ayniqsa, ingliz tilini mamlakatimiz miqyosda o'qitilishiga katta hissa qo'shgan olim J.Jalolov mamlakatimiz hududida chet tillarini o'qitilishi 4 ta davrga bo'linadi: birinchi davrni 1924-yilgacha, ikkinchi 1961-yilgacha, uchinchisi ni 1991-yilgacha, to'rtinchi 1991-yildan keying davrlardir. Dastlabki uch davrda belgilangan vazifalar o'z ijrosini topa olmadi. Bunga asosiy sabab, chet tillini o'qitishda yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligida edi. Bu esa o'z navbatida oliy ma'lumotli bo'limgan kadrlarni jalb qilinishiga olib keldi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 80 yillar oxirida maktablarda faoliyat ko'rsatgan 14205 nafar chet tillari o'qituvchisining qariyb 10 foizi to'liqsiz oliy kadrlar edi.

Keyingi to'rtinchi davrlardan keyin chet tillarini o'qitishda oldinga siljish kuzatiladi. Xuddi shunday turkilardan biri 1996 yilning oktabr oyida O'zbekistonda Britaniya konsulligi hamda uning mahalliy vakilliklari tashkil etilib, ular tomonidan ta'lim jarayonida ingliz tilini mamlakatda o'qitilishini kengaytirish bo'yicha bir necha dastur va loyihalar ishlab chiqildi. Ushbu yillardan beri boshlang'ich ta'limdan keying ta'lim jarayonida konsullik tomonidan almashinilgan tajriba asosida ingliz tilini o'qitilishi davom etmoqda.

Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi, global tilning afzalliklari va kamchiliklari bor. Birinchi afzalligi turli madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Global til turli madaniyatlar o'rtasida muloqot qilish imkonini beradi. Til har doim madaniy o'ziga xoslikning asosiy nuqtasi bo'lib kelgan. Global til aloqa to'siqlarini yo'q qiladi va odamlarga bir-birining madaniyatini tushunish uchun imkonini taklif qiladi. Ikkinchi afzalligi, xalqaro savdoni osonlashtiradi. 1970-yillardan beri global mashinashuv va neoliberalizmning kuchayishi bilan turli mamlakatlar o'rtasida misli ko'rilmagan miqdordagi xalqaro savdo va biznes amalga oshirildi. Haqiqat shundaki, boshqa mamlakatdan biznes sherigidan sotib olish yoki sotish uchun siz samarali va to'g'ri muloqot qilishingiz kerak. Yaxshiyamki, global til aloqa to'siqlarini yo'q qiladi, xalqaro savdoni va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini oshiradi.

Birinchi kamchiligi ilmiy sohada ya'ni fanlar bo'yicha ingliz tili ona tilisi bo'limganlar uchun qiyinchiliklarni taqdim etishi haqida. Ilmiy maqolani chop etish uzoq (taxminan bir yil) va ko'p bosqichlarni talab qiladigan qiyin ishdır. Global tilga ega bo'lish olimlarga butun dunyo bo'ylab ko'plab adabiyotlardan foydalanish imkonini berdi, ammo bu ingliz tilida so'zlashuvchi bo'limganlar uchun ham jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Siz shunday deb o'ylayotgandirsiz: „Ular olimlar. Nega olimlar o'z maqolalarini chop etish uchun ingliz tilini yetarli darajada bilishlari kerak?”. Xo'sh, olimlar o'zlarining topilmalari, xulosalari va usullarini aniq yetkazishlari kerak va ingliz tili ona tilisi bo'limganlar uchun bu mashaqqatli bo'lishi mumkin. O'z ishlarining jahon miqyosda e'tirof etilishini istagan olimlar ingliz konferensiyalari yoki muhokamalarida qatnashishlari va ingliz ilmiy maqolalarini o'qishlari kerak. “The Atlantic” jurnalida chop etilgan maqolaga ko'ra, ilmiy maqolalarning 80% ingliz tilida bo'lgan. Bundan tashqari, maqolada ta'kidlanishicha, “ingliz tilidan boshqa tilda nashr etilgan jurnalda hech bo'limganda inglizcha tezislar bo'lishi kerak”.

Ikkinci kamchiligi ozchilik tillar (kam odam gaplashadigan) uchun xavf tug'dirishi haqida gap ketadi. BBC maqolasiga ko'ra, o'tgan asrda 400 ga yaqin til yo'q bo'lib ketgan. Har uch oyda bir til va keying asrda qolgan barcha tillarning 50 foizi yo'q bo'lib ketadi. Chunki oddiy qilib aytganda, yo'qolgan til o'ziga xos madaniyatning yo'qolishini anglatadi. Global tilda gapiradigan odamlar ish, ta'lim va umumiy muvaffaqiyat uchun ko'proq imkoniyatlarga ega. Shu sababli, ba'zi ozchiliklar tilida so'zlashuvchilar global tilda gapirishni o'rghanish ularga moliyaviy foya keltirishiga ishonishadi. Bundan tashqari, globallashuv bilan bizning madaniyatlarimiz tobora o'zaro bog'lanib bormoqda va bu ozchiliklar tillarini global til egallashini kuchaytirmoqda.

Yozma va elektron aloqada ingliz tilining ulushini oshirish. Og'zaki nutq bilan bir qatorda ingliz tilida so'zlashmaydigan mamlakatlarda ta'lim sohasidagi yoshlar va kattalar sonining ko'payishi ingliz tilida yozma tilni o'zlashtirishga intilmoqda. Masalan, ko'plab talabalar, aspirantlar, universitet professor o'qituvchilari va olimlar xalqaro konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlarda qatnashadigan yoki chet elda o'zlarining ilmiy asarlarini nashr etishni istaganlar nafaqat nutq so'zlashlari, balki ingliz tilida ham yozishlari kerak. Ingliz tili ko'pincha bunday konferensiyalar va boshqa forumlarning ish tili bo'lib, unga tayyorgarlik paytida ingliz tilida oldindan yozma ravishda kerakli ma'lumotlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, o'zini hurmat qiladigan olim o'z asarlarini chet elda nashr etishga harakat qiladi va ingliz tilidan foydalanadi.

Ingliz tilida yozish va o'qish qobiliyati Internet xizmatlaridan foydalanish va chet ellik hamkasblar bilan elektron aloqa orqali yozishmalar bilan bevosita bog'liqlar. Bugungi kunda nafaqat o'rta va oliy o'quv yurtlari talabalari, balki tobora

ko'payib borayotgan maktab o'quvchilari o'zlarining elektron pochta manzillariga ega. Ushbu tarmoqda chet ellik tengdoshlari bilan yozishib turadiganlarning aksariyati, odatda, ingliz tilini madaniyatlararo o'zaro ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ishlatishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet tilida yaxshi muloqot qilish ko'nikmasiga ega bo'lish uchun nafaqa lug'at(birgina so'zlar va ularning ma'nolari,birikmalari, iboralar va frazemalar va boshqalar)balki til tuzilmalari va birinchi navbatda ulardan foydalanish strategiyalari bilan tanishish kerak shunda global tilga aylanib boroyatgan bu tilni tez o'rganiladi va dunyo miqyosida o'z o'rnnini qiyinchiliksiz topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-ta-lim-tizimida-engliz-tili/viewer>
2. <https://fledu.uz/uz/global-tilning-orni-va-ahamiyati/>
3. <https://chistenkoeschool.ru/uz/iskusstvo/kak-angliiskii-yazyk-stal-globalnym-english-as-an-international-language-pochemu/>
4. <https://moscsp.ru/uz/angloyazychnye-strany-spisok-strany-v-kotoryh-angliiskii-yazyk.html>
5. Zubaydova N.N. Learning English with phrases // Scope Academic house, 9th International Conference “ Science and practice : a new level of integration in the modern word's .-Sheffield ,UK., 2019.45-53 bet.